

**BUYUK JADIDLARIMIZ ILM-MA'RIFAT YO'LIDA QILGAN ISHLARI, BU
FAOLIYATNING BUGUNGI KUNDAGI TALQINI**

Bekchanova Ozoda Otajon qizi
Urganch davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim fakulteti o'qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqola buyuk ma'rifatparvar jadidlar haqida keltirib o'tilgan. Ilm ma'rifat yo'lida qilgan faoliyati, insonlarni ilm olishlari uchun yaratilgan sharoit haqida yaratilgan sharoitlar aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: til, jadid, yodgorlik, ma'rifat.

Introduction

Аннотация

В данной статье рассматриваются великие просветители-джадиды. Обсуждается их деятельность на пути к знаниям и условия, созданные для того, чтобы люди могли получать образование.

Ключевые слова: Язык, джадид, памятник знанию.

Annotation.

This article discusses the great enlightenment figures known as Jadids. It highlights their activities in the pursuit of knowledge and the conditions created for people to access education.

Keywords: Language, monument, enlightenment.

Dunyo mamlakatining o'z tarixiga ega bo'lganidek, O'zbekiston ham o'z tarixiga egadir. Jadidchilik tarixi ham alohida ahamiyatga ega bo'lib, uning asoschilari sifatida Ismoil Gaspirali, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Cho'lpon, Fitrat, xususan Xorazm viloyatidan yetishib chiqqan ma'rifatparvarlarimizdan Jumaniyoz Boboniyozov, Nazir Sholikorov, Sulton qori Jumaniyozov, Bekjon Rahmon, Jumaniyoz Olloqulov, Maryam Sultonmurodova aytib o'tish joiz. Ismoil Gaspirali 1884-yil birinchi marta Boqchasaroyda yangi usuldagi "usuli jadid" maktabini ochib, maorif tizimini isloh etish borasidagi yangi g'oyani "Tarjimon" gazetasi maktabning oldiga quyidagi vazifani qo'yganligini yozadi:

— maktab madrasadan ajralib chiqish kerak:

— boshlang'ich sinflar uchun alohida o'qituvchilar tayyorlanishi lozim:

— o'qituvchiga "sadaqa" emas, oylik maosh bilan ta'minlanishi zarur:

— o'qish va yozish eski "hijjalama" yo'li bilan emas, yangi "Alifbo" kitoblari vositasida o'rgatilishi maqsadga muvofiq:

— faqatgina o'qish emas, shu bilan birga yozishga ham ahamiyat berilishi kerak:
— qizlar uchun ham alohida maktablar ochilib, u yerda o'qish va yozishga alohida e'tibor berilishi kerak:

—o'qitish ma'lum bir Dastur asosida va darsliklar vositasida olib borilishi kerak: “Usuli jadid” harakati vaqt o'tishi bilan o'z mevalarini bera boshlaydi. 1904-yil kelib Rossiyaning o'zida besh mingga yaqin “usuli jadid” maktablari ochiladi.

Yangiliklar jarchisi bo'lmish Mahmudxo'ja Behbudiy ham ma'rifatparvarlik yo'lida jon fido qilgan adiblardandir. Uning bu harakatlarining uyg'onishiga sabab juda ko'p davlatlarga sayohatda bo'lganligidir. Ma'rifat shaydosi qayerga borsa, birinchilardan bo'lib o'quv muassasalari, madaniyat maskanlari, maishiy xizmat tarmoqlari bilan qiziqar edi. Adib Bayrutdagi dorilfununlar Yevropa va Amerika sarmoyadorlari tomonidan idora etilsa-da, asosiy fanlarning arab tilida o'qitilishi, ingliz va fransuz tillarni faqat bir fan sifatida o'qitilishi, hatto taajub bilan Yaponidan ham kelib o'qishini aytadi. Bizni Turkiston va Buxorodan bu yerda hech kimsa yo'q ekanligi, biz dunyo ilmlaridan ortda qolib borayotganini kuyinib yozadi adib. Behbudiy hamma jarayonlarni ko'rib xalqni ma'rifatli qilish uchun o'zining ma'rifatparvarlik dasturini izchil bir tizim sifatida taqdim etadi. Bu dastur quydagicha:
—Bolalarni musulmon, usuli jadid, rus-tuzem maktablari va gimnaziyalarda o'qitish:
—Eski madrasa, mozor-u masjid va maktablarni “shikast rext” larini ta'minlash:
—Bolalarni Sharq mamlakatlari va Rossiyadagi dorilfunun hamda dorilsanoatlarga o'qishga yuborish:

—Bolarni hukumat maktablarida o'qitish; buning uchun har bir bolani ikki yil davomida ruschaga o'qitish va tarbiya qilish; ikki yil uchun to'lanajak 600 so'mni to'y-ma'rakalar uchun jamlangan mablag'dan olish:

—Bolalarni tarbiya qiladigan joylarni ochish, bu maskanlarni milliy va diniy ruhda bo'lishini erishish:

—Tarbiyaxonalar ochish va bolalarni hukumat maktablariga tayyorlash uchun “Nashri maorif” yoxud “Jamiyati xayriya” yoki “Jamiyati atfol” singari jamiyatlar tashkil etish:
— Bu jamiyat yordamida yetishib chiqqan kadrlar, huquqshunos, deputat, o'qituvchi va ko'plab kadrlar yetishtirib, bu kadrlar Turkistonda ochiljak tashkilotlarda ishlaydigan xodimlar bo'lib yetishsin.

Mahmudxo'ja Behbudiy butun faoliyatini millatni ma'rifatli qilish uchun harakat qildi. Buni amalga oshirish uchun jadid maktablarini ko'paytirdi va maktablar uchun o'quv dastur va darsliklar yaratish. 1904-1909-yillar davomida o'zbek va tojik tillarda “Risolayi asbobi savod”, “Muntaxabi jug'rofiyayi umumiy”(Qisqacha umumiy geografiya), “Kitobat ul-atfol”(Bolalar maktablari), “Muxtasar tarixi islom”(Islomning qisqacha tarixi), “Madxali jug'rofiyayi umroniy”(Aholi geografiyasiga kirish), “Muxtasar jug'rofiyayi Rusiy”(Rossiyaning qisqacha geografiyasi) kabi ko'plab darsliklar yaratdi.

Savod alifbodan boshlangan. Shu sababli jadid pedagoglari “usuli satviya” metodida faoliyat ko'rsata boshlaganligi sababli ularga darslik juda zarur bo'lgan. Adib birinchilardan bo'lib Turkiston zaminida alifbo darsligini yaratadi va unga “Risolayi asbobi savod ” deb nom beradi. Adib darslikni bosmadan chiqarishdan oldin bir yil davomida Abduqodir Shakuriy maktabida tajribadan o'tkazadi. Tajribadan o'tgan darslikni ba'zi qismlariga o'zgartirish kiritib uni

bosmadan chiqaradi. Undan keyin adib o'zining "Kitobat ul-atfol" darsligini yaratadi. Bu darslini yaratishdan maqsad bolalarni yozuvga o'rgatish edi. Bu darslik ichida tur-xil mazmundagi xatlar va rasmlar berilgan bo'lib, o'quvchilar uni chiroyli yozishga va adabiy til me'yorlari asosida hujjat yoza olishga mo'ljallangan edi. Behbudiy qarshi bo'yicha o'rta maktabni bitkazgan har bir o'quvchi qaysi sohada faoliyat olib borishidan qat'i nazar o'z fikrini tugal, mantiqli tarzda uslubiy va imloviy kamchiliklarsiz yozma ravishda bayon qila olishi zarurligini ta'kidlaydi.

Behbudiy hayot faoliyatini o'rganish orqali shuni guvohi bo'lamiz, u ma'rifat izlab eng ta'lim rivojlangan davlatlar ta'lim tizimini o'rganar va uni Turkiston tizimiga moslashtirgan holda tashkil qildi. Bu g'oya hozirgi kunda ham o'z kuchini yo'qotgani yo'q.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "2022—2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" farmoniga asosan: "Maktab o'quvchilarining bilimi va ko'nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o'qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o'quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, maktab ta'limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish maqsadida, shuningdek, 2022—2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq: 2022 — 2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dastur maktab ta'limiga ilg'or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan Milliy o'quv dasturini to'laqonli joriy etish hamda mahalliy va xorijiy mualliflar tomonidan yaratilgan zamonaviy darsliklarni amaliyotga kiritish" lozimligini ta'kidlagan. Bu g'oya yuz yil oldin amaliyotga joriy qilmoqchi bo'lgan adibning fikrlarini isboti sifatida ko'rsatishimiz mumkin.¹

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 2020-yil 23-sentyabr.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild.-T.: O'zbekiston, 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. - T.: O'zbekiston, 2020.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.05.2022 yildagi PF-134-son <https://lex.uz/>